

BOSHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI VA O'QUV SAVODXONLIGI DARSLARIDA O'QUV KOMPITENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISH

Abdurazakova Nurjamal Salimatdinovna

Ajiniyoz nomidagi NDPI Sirtqi bo'lim

*Gumanitar va ijtimoiy fanlarni masofadan o'qitish kafedrasi
stajyor- oqituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada kompetenciya tushunchasi va uning mazmun mihiyati, nutqiy kompetenciya atamasi, boshlang'ich sinflarda ona tili va o'quv savodxonligi darslarida o'quv komponentligini takomillashtirish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, kompetensiya, onatili va o'qish savodxonligi, nutq, grammatika, yosh xususiyatlar, lingvistik kompetenciya, nutq kompetenciyasi.

Аннотация. В данной статье рассматривается понятие компетентности и ее сущность, термин речевая компетентность, совершенствование образовательного компонента на занятиях по родному языку и академической грамотности в начальных классах.

Ключевые слова: начальное образование, компетентность, родной язык и грамотность чтения, речь, грамматика, возрастные особенности, языковая компетенция, речевая компетенция.

Abstract. This article discusses the concept of competence and its meaningful nature, the term speech curriculum, and the provision of educational components in educational classes.

Key words: worldview education, competence, mother tongue and reading literacy, speech, grammar, age production, linguistic competence, speech competence.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirish va shu asnodda barkamol avlodni kamol toptirish masalasi dolzarb va ustuvor vazifa sifatida e'tirof etilmoqda. "Ta'lim hayotga tayyorgarlik emas, ta'lim – bu hayotning o'zi" deydi Jon Dyui. *Kompetensiya – bilim, ko'nikma va malakalarni hayotda qo'llash ko'nikmasi Umumiy o'rta ta'lim davlat standartlarining tarkibiy qismlari bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi* Milliy o'quv dasturi asosida 2021-2022-o'quv yilidan boshlab umumta'lim maktablarida Ona tili va O'qish fanlarining birlashuvi natijasi "Ona tili va o'qish savodxonligi" fani joriy etildi va hamda ushbu fanga "yashashni o'rgatadigan fan" deya ta'rif berilmoqda.. Ikki fanning birlashuviga asosiy sabab ona tilini o'qitishdagi yondashuvning o'zgarishi bo'ldi. Endilikda grammatika va yodlashga asoslangan ta'limdan tinglab tushunish, o'qib tushunish, fikrni og'zaki va yozma bayon qilishdan iborat til o'rgatishning to'rt ko'nikmasini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim shakliga o'tildi. Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'qitishda asosiy e'tibor o'quvchida tilga doir to'rt ko'nikma: o'qib tushunish, tinglab tushunish,

nutq soʻzlash va yozish hamda grammatik savodxonlikni shakllantirishga qaratiladi. Taʼlim jarayonida oʻquvchilarni voqea-hodisalarni kuzatish, anglash, qiyoslash, analiz va sintez qilishga oʻrgatish orqali ularning ijodiy va tanqidiy tafakkurini, fikrlash doirasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Ona tili va oʻqish savodxonligi fani ushbu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi. *Ona tili boshlangʻich sinflarda asosiy oʻrinni egallar ekan, har bir oʻquvchida ona tiliga qiziqish va muhabbatni tarbiyalab borish zarur. Ona tili fanining oʻquv dasturi oʻquvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yoʻnaltirilgan Davlat taʼlim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Oʻquv dasturida oʻquvchilarda fanga doir nutqiy va lingvistik kompetensiyalarni hamda tayanch kompetensiyalarning elementlarini shakllantirish koʻzda tutilgan. Boshlangʻich taʼlimda – oʻquvchilarning savodxonligini taʼminlash, ogʻzaki va yozma nutqida adabiy nutq meʼyorlariga rioya qilishni shakllantirishdan iborat. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida ona tili fanini oʻqitishning maqsadi – oʻquvchilarda ogʻzaki va yozma nutq koʻnikmasini, ijodiy fikrlash malakasini, kitobxonlik va nutq madaniyatini rivojlantirishdan iborat. Ona tili fanini oʻqitishning asosiy vazifasi: oʻquvchi shaxsini fikrlashga, oʻzgaralar fikrini anglashga, oʻz fikrini ogʻzaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan. Nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; oʻquvchilarda grammatikaga oid bilimlarni (fonetika, leksikologiya, soʻzning tarkibi, soʻz yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni) shakllantirish va rivojlantirish hamda ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda oʻqigan, koʻrgan, eshitganlarini nutqiy toʻgʻri va ravon bayon eta olish koʻnikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat. Nutqiy kompetensiya (tinglab tushunish, soʻzlash, oʻqish, yozish): mavzu doirasida oʻqituvchi nutqini va sodda audio (multimedia ilovalari) matnlarni va topshiriqlarini tinglab tushuna oladi;*

Har bir mashgʻulot tilni oʻzlashtirishning tabiiy laboratoriyasi sifatida tashkil etiladi, yaʼni mashq daftari orqali oʻquvchular bilimlarini zanada mustahkamlaydilar. mashq daftarida darslikda ishora qilingan, maxsus belgi bilan ajratilgan topshiriqlar bajarib boriladi. Oʻquvchilar daftarga yozishlari, chizishlari, boʻsh oʻrinlarni toʻldirishlari, oʻqib va tinglab tushunish, matn tuzish bilan bogʻliq topshiriqlarni bajarishlari hamda rasmlarni boʻyashlari mumkin [3]: *koʻrgan rasmlari va oʻqib eshittirilgan matn yuzasidan oʻqituvchi yordamida suhbatga kirisha oladi, nutq jarayonida oʻzlashtirgan yangi soʻzlarni ogʻzaki nutqda qoʻllay oladi. Nutq va matnning gaplardan tuzilishi, matnni mazmunan bogʻlangan gaplardan tuzilishini aytib bera oladi; kishilarning his-hayajonini bildirgan gaplarni, gaplarni mazmuniga koʻra farqlaydi, oxiridagi nuqta, soʻroq va undov belgilariga qarab oʻqiy oladi, ajrata oladi, gap ohangiga rioya qilgan holda ravon va ifodali oʻqiy oladi; gapni bosh harf bilan boshlab yoza oladi, rasmlarga qarab gap tuzadi va yoza oladi, harflarni yozuvda imlo va husnixat qoidalariga amal qilgan holda harflarni bir-biriga ulab, koʻchirib, namunaga qarab yoza oladi. Bir mavzu doirasidagi savollarga javob yoza oladi, 15-20 soʻzli diktant yoza oladi. Endilikda grammatika bilan bir qatorda oʻquvchilardagi nutqiy kompetensiyani, yaʼni tinglab tushunish, gapirish, oʻqish va yozish kabi amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga koʻproq eʼtibor qaratish lozim. Bu maqsadga erishishda ona tilining nutqiy kompetensiya elementlari (tinglab tushunish, gapirish, oʻqish, yozish)ni har bir darsda amaliy qoʻllash va oʻquvchida bunga*

nisbatan ko'nikmani shakllantirish darkor [6]Lingvistik kompetensiya: o'zbek tilida nutq tovushlarini to'g'ri talaffuz qila oladi, so'zlarni talaffuz me'yorlariga rioya qilagan holda bo'g'inlab ko'chirish qoidasiga rioya qila oladi, mavzuga oid so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay oladi, tinish belgilarini to'g'ri qo'llay oladi.*1+Boshlang'ich sinflarda grammatik tushunchani o'zlashtirish uzoq davom etadigan va kichik yoshdagi o'quvchilar uchun ancha murakkab jarayondir. Shunga ko'ra, o'qituvchi boshlang'ich sinflarda tushunchani o'zlashtirishga oid ishlarni tashkil etishda o'rganiladigan tushunchaning lingvistik mohiyatini, bilimlarni o'zlashtirish jarayoning psixologik-didaktik xususiyatlarini, o'quvchilarning nutqiy va aqliy faoliyatini rivojlanish darajasini aniq bilib olishi zarur. Boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi fanida o'quvchilarni og'zaki va yozma nutqini har jihatdan shakllantirish ta'lim sohasidagi barcha pedagogik fanlar bilan bog'langan holda amalga oshiriladi va ana shu fanlarni to'liq o'rganishga tayyorlaydi. Bu jarayonda o'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish bilan birga barkamol shaxsni shakllantirishga zamin hozirlanadi. Barkamol shaxsni shakllantirishda albatta, o'quvchilarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish katta samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ushinskiy K.D. Tanlangan pedagogik asarlar. Toshkent. "O'zdamnashr", 1959
2. Qurbonova O., Davletova A. O'quvchilarning nutq madaniyati va nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish. "Scientific progress"; Volume 3/issue 5/2022.
3. Temirova K.S. Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnali, № 6/2022.
4. **Ganiyeva G.M.** Abdulla Avloniyning asarlarida pedagogik qarashlar. Journal of Integrated Education and Research, (2023) 2(3), 32–35. Retrieved from
5. Ганиева Г. (2022). Ёшларни юксак ғоявийлик ва миллий ғояга содиқлик, ёт мафкураларга қарши муросасизлик руҳида тарбиялаш. Journal of Integrated Education and Research, 1(6), 2–5. Retrieved from
6. Abibullayeva P.O. "GOALS, OBJECTIVES AND FUNCTIONS OF PEDAGOGY" Science and Education in Karakalpakstan. 2022 №2/2 ISSN 2181-9203
7. <https://kopilkaurokov.ru>
8. https://t.me/rtm_metodik_xizmat